



INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER


p-ISSN 2992-9229

e-ISSN 3060-5318



TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

Xalqaro ilmiy jurnal



SAMARQAND – 2025

p-ISSN 2992-9229

e-ISSN 3060-5318



TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

XALQARO ILMIY JURNALI


“TURKOLOGICAL RESEARCH” INTERNATIONAL SCIENTIFIC
JOURNAL

ULUSLARARASI “TÜRKOLJİ ARAŞTIRMALARI” DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”



Jurnal rasmiy sayti: <https://turkologiya.samdu.uz/>



SAMARQAND – 2025



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL “TURKOLOGICAL RESEARCH”
ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Bosh muharrir:	Bosh muharrir o‘rinbosari:
Juliboy ELTAZAROV <i>f.f.d., professor (O‘zbekiston)</i>	Roxila RUZMANOVA <i>f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)</i>
TAHRIRIYAT KENGASHI:	
Rustam XALMURADOV – t.f.d., professor, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti rektori (O‘zbekiston); Hakim XUSHVAQTOV – f-m.f.d., professor, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori (O‘zbekiston); Akmal AHATOV – t.f.d., professor, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektori (O‘zbekiston); Muslihiddin MUHIDDINOV – f.f.d., professor (O‘zbekiston); Ibodulla MIRZAYEV – f.f.d., professor (O‘zbekiston); Shuhrat SIROJIDDINOV – f.f.d., professor (O‘zbekiston); Suyun KARIMOV – f.f.d., professor (O‘zbekiston); Murodqosim ABDIYEV – f.f.d., professor (O‘zbekiston); Azamat PARDAYEV – f.f.d., professor (O‘zbekiston); Musa YULDASHEV – f.f.n., professor (O‘zbekiston); Dilfuza DJURAKULOVA – t.f.n., professor (O‘zbekiston); Aftondil ERKINOV – f.f.d., professor (O‘zbekiston); Qosimjon SODIQOV – f.f.d., professor (O‘zbekiston); Muhabbat QURBONOVA – f.f.d., professor (O‘zbekiston);	Ali AKAR – f.f.d., professor (Turkiya); Abduselam ARVAS – f.f.d., professor (Turkiya); Funda TOPRAK – f.f.d., professor (Turkiya); Musa Shamil YUKSEL – f.f.d., professor (Turkiya); Temur KOJAO‘G‘LI – f.f.d., professor (AQSH); Hayrunnisa ALAN – f.f.d., professor (Turkiya); Varis CHAKAN – f.f.d., professor (Turkiya); Almaz ULVI – f.f.d., professor (Ozarbayjon); Emrah YILMAZ – Phd, dotsent (Turkiya); Foziljon SHUKUROV – Phd, dotsent (O‘zbekiston); Dilshod XURSANOV – Phd, dotsent (O‘zbekiston); Shahnoza XUSHMURODOVA – DSc, professor (O‘zbekiston); Dinara ISLAMOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston); Feruza JUMANIYAZOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston); Istoda RASULOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston); Dilorom MUMINOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston); Zarifa XUSANOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston); Ahmadjon MAVLONOV – Phd, dotsent (O‘zbekiston); Ilyos JO‘RAYEV – Phd, dotsent (O‘zbekiston); Ibodullo ZUBAYDULLAYEV – Phd, dotsent (O‘zbekiston); Bahora YUNUSOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston); Feruza MANUKYAN – Phd (O‘zbekiston); Mas’ul muharrir: PhD, dotsent Zokir BAYNAZAROV (O‘zbekiston); Texnik xodim: Raxmatulla SHOKIROV (O‘zbekiston).



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”
ULUSLARARASI “TÜRKOLÖJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Главный редактор:

Жулибой ЭЛТАЗАРОВ

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Рохила РУЗМАНОВА

к.ф.н., доцент (Узбекистан)

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Рустам ХАЛМУРАДОВ – д.т.н., профессор, ректор Самаркандского государственного университета имени Ш.Рашидова (Узбекистан);

Хаким ХУШВАКТОВ – д.ф.м.н., профессор, проректор по научной работе и инновациям Самаркандского государственного университета имени Ш.Рашидова (Узбекистан);

Акмал АХАТОВ – д.т.н., профессор, проректор по международному сотрудничеству Самаркандского государственного университета имени Ш.Рашидова (Узбекистан);

Муслихиддин МУХИДДИНОВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Ибодулла МИРЗАЕВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Шухрат СИРОЖИДДИНОВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Суюн КАРИМОВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Муродкасым АБДИЕВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Азамат ПАРДАЕВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Муса ЮЛДАШЕВ – к.ф.н., профессор (Узбекистан);

Дилфуза ДЖУРАКУЛОВА – к.и.н., доцент (Узбекистан);

Афтондил ЭРКИНОВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Касимжон СОДИКОВ – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Мухаббат КУРБАНОВА – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

Али АКАР – д.ф.н., профессор (Турция);

Абдуселам АРВАС – д.ф.н., профессор (Турция);
Фунда ТОПРАК – д.ф.н., профессор (Турция);
Муса Шамиль ЮКСЕЛЬ – д.ф.н., профессор (Турция);

Темур КОДЖАОГЛУ – д.ф.н., профессор (США);

Хайрунниса АЛАН – д.ф.н., профессор (Турция);
Варис ЧАКАН – д.ф.н., профессор (Турция);

Алмаз УЛЬВИ – д.ф.н., профессор (Азербайджан).

Эмрах ЙИЛМАЗ – PhD, доцент (Турция);

Фозилжон ШУКУРОВ – PhD, доцент (Узбекистан);

Дилшод ХУРСАНОВ – PhD, доцент (Узбекистан);

Шахноза ХУШМУРОВОВА – DSc, профессор (Узбекистан);

Динара ИСЛАМОВА – PhD, доцент (Узбекистан);

Феруза ДЖУМАНИЯЗОВА – PhD, доцент (Узбекистан);

Истода РАСУЛОВА – PhD, доцент (Узбекистан);

Дилором МУМИНОВА – PhD, доцент (Узбекистан);

Зарифа ХУСАНОВА – PhD, доцент (Узбекистан);

Ахмаджон МАВЛОНОВ – PhD, доцент (Узбекистан);

Илёс ЖУРАЕВ – PhD, доцент (Узбекистан);

Иболулло ЗУБАЙДУЛЛАЕВ – PhD, доцент (Узбекистан);

Бахора ЮНУСОВА – PhD, доцент (Узбекистан);
Феруза МАНУКЯН – PhD (Узбекистан);

Ответственный редактор: **PhD, доцент Зокир БАЙНАЗАРОВ** (Узбекистан)

Технический персонал: **Рахматулла ШОКИРОВ** (Узбекистан)



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ”

Chief Editor:/ Deputy Chief Editor:

Prof. Dr. Juliboy ELTAZAROV (Uzbekistan)

Ass. Prof. Dr. Rokhila RUZMANOVA (Uzbekistan)

Baş Editör:/ Baş Editör Yardımcısı:

Prof. Dr. Juliboy ELTAZAROV (Özbekistan)

Doç. Dr. Rohila RUZMANOVA (Özbekistan)

EDITORIAL TEAM:/ BİLİM KURULU:

Prof. Dr. Rustam KHALMURADOV – Rector of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

Prof. Dr. Hakim KHUSHVAKTOV – Vice-Rector for Research and Innovation, Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

Prof. Dr. Akmal AKHATOV – Vice-Rector for International Cooperation of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

Prof. Dr. Muslihiddin MUKHIDDINOV (Uzbekistan)

Prof. Dr. Ibodulla MIRZAEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Shukhrat SIROJIDDINOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Suyun KARIMOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Murodkasim ABDIEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Azamat PARDAEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Musa YULDASHEV (Uzbekistan);

Ass. Prof. Dr. Dilfuza DJURAKULOVA (Uzbekistan);

Prof. Dr. Aftondil ERKINOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Kasimjon SODIKOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Muhabbat KURBANOVA (Uzbekistan);

Prof. Dr. Ali AKAR (Turkey);

Prof. Dr. Abduselam ARVAS (Turkey);

Prof. Dr. Funda TOPRAK (Turkey);

Prof. Dr. Musa Shamil YUKSEL (Turkey);

Prof. Dr. Temur KOJAOGU (USA);

Prof. Dr. Hayrunnisa ALAN (Turkey);

Prof. Dr. Varis CHAKAN (Turkey);

Prof. Dr. Almaz ULVI (Azerbaijan);

Ass. Prof. PhD. Emrah YILMAZ (Turkey);

Ass. Prof. PhD. Foziljon SHUKUROV (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Dilshod KHURSANOV (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Shakhnoza KHUSHMURODOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Dinara ISLAMOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Feruza JUMANIYAZOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Istoda RASULOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Dilorom MUMINOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Zarifa KHUSANOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Akhmadjon MAVLONOV (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Ilyos JURAYEV (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Ibodullo ZUBAYDULLAYEV (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Bakhora YUNUSOVA (Uzbekistan);

PhD. Feruza MANUKYAN (Uzbekistan);

Managing editor: *Ass. Prof. PhD. Zokir BAYNAZAROV* (Uzbekistan)

Technical staff: *Rakhmatulla SHOKIROV* (Uzbekistan)

Prof. Dr. Rustam HALMURADOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Rektörü (Özbekistan);

Prof. Dr. Hakim HUŞVAKTOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Araştırma ve İnovasyondan Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);

Prof. Dr. Akmal AHATOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Uluslararası İşbirliğinden Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);

Prof. Dr. Muslihiddin MUHİDDİNÖV (Özbekistan);

Prof. Dr. İbodulla MİRZAYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Şuhrat SİROCİDDİNÖV (Özbekistan);

Prof. Dr. Suyun KARİMOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Murodkasım ABDİYEYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Azamat PARDAYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Musa YULDAŞEV (Özbekistan);

Doç. Dr. Dilfuza CURAKULOVA (Özbekistan);

Prof. Dr. Aftondil ERKİNOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Kasimcon SODİKOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Muhabbat KURBANOVA (Özbekistan);

Prof. Dr. Ali AKAR (Türkiye);

Prof. Dr. Abdusaleem ARVAS (Türkiye);

Prof. Dr. Funda TOPRAK (Türkiye);

Prof. Dr. Musa Şamil YÜKSEL (Türkiye);

Prof. Dr. Timur KOCAOĞLU (ABD);

Prof. Dr. Hayrunnisa ALAN (Türkiye);

Prof. Dr. Varis ÇAKAN (Türkiye);

Prof. Dr. Almaz ÜLVİ (Azerbaycan);

Doç. Dr. Emrah YILMAZ (Türkiye);

Doç. Dr. Fozilcon ŞUKUROV (Özbekistan);

Doç. Dr. Dilşod HURSAVOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Şahnoza HUŞMURODOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Dinara İSLAMOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Feruza CUMANIYAZOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Istoda RASULOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Dilorom MUMİNOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Zarifa HUSANOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Ahmadjon MAVLONOV (Özbekistan);

Doç. Dr. Ilyos JÖRAYEV (Özbekistan);

Doç. Dr. Ibodullo ZUBAYDULLAYEV (Özbekistan);

Doç. Dr. Bahora YUNUSOVA (Özbekistan);

Dr. Feruza MANUKYAN (Özbekistan);

Sorumlu Editör: *Doç., Dr. Zokir BAYNAZAROV* (Özbekistan)

Teknik Personel: *Rahmatullah ŞOKİROV* (Özbekistan)

MUNDARIJA | CONTENT | İÇERİK | СОДЕРЖАНИЕ
TURK DUNYOSI TADQIQOTLARI

Nergis BIRAY

Ana Dili Bilinci ve Türk Dünyasının Dil Birliği7

Elçin İBRAHİMOV

Türk Dünyasında Ortak Alfabe ve İletişim Dili14

Berdi SARIYEV

Bağımsızlıktan Sonra Türkmenistan’da Dil Çalışmaları23

Emrah YILMAZ

UNESCO Ekseninde Türk Dili Ailesinin Küresel Yolculuğu35

Nigar Oruj MAMMADOVA

Azerbaycan Toponimisinde Paleodiyalektolojik ve Neodiyalektolojik Dilsel Olgular48

Dinara ISLAMOVA, Muxlisa JALILOVA

Turkiy tillarda etnografizmlarning shakllanishi va rivoji: areal hamda lingvomadaniy tahlil53

TURKIY XALQLAR TARIXI

Zhalgas TORENIYAZOV, Gulnaz ALLAMZHAROVA

The central city in the southern Aral region: Kungrad (XVII-XIX centuries).....60

Munisa ABDUMUTALOVA

XIX asrning 2-yarmi – XX asr boshlarida O’rta Osiyo hunarmandchilik ustaxonalari va ularning shakllanish jarayoni68

Мухаммадхон БУЗРУКОВ

Рукопись произведения «Kalila va dimna-i turkiy» из библиотеки Самаркандского государственного университета как памятник литературного языка Хивинского ханства.....74

Sherzod TANGIROV

Rossiya imperiyasi ma’muriyatida tarjimonlar masalasiga doir hujjatlar tahlili (Samarqand viloyati misolida).....81

ADABIY ALOQALAR, QIYOSIY TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK

Sema EYNEL

İsacan Sultan’ın “Ali Şir Nevâî” Romanının Kaynakları Üzerine Metinlerarası Bir İnceleme87

Уркия УЗЕНБАЕВА

Чынгыз Айтматовдун чыгармаларындагы улуттук идеологияны чагылдыруудагы аялдардын орду99

Axmadjon MAVLONOV, Marjona MUSTAFOQULOVA

O’tkir Hoshimov hikoyalarida -day/-dek vositalari yordamida hosil bo’lgan o’xshatishlar105

Элмира ХУРИБАЕВА

Кыргыз тилиндеги дыйканчылык өнөрүн чагылдырган метафоралар жана табышмактар112

Ayten HASANOVA

Azerbaycan Dilinin Gebele Şivelerinde Terminolojik Karakterli Kelimeler119

Бекзод САТТОРОВ

Язык и мышление: когнитивный аспект узбекского языка.....124

Саломат ХУСАНОВА

Анализ отражения гендерных ролей и ожиданий в поэзии А. Ахматовой и Х. Худойбердиевой130

Рохила АМИНОВА

Особенности перевода узбекских фразеологизмов на русский язык137

Шахноза РАСУЛОВА

Поэтические приёмы изображения пейзажа в современной узбекской поэзии142

Баходир ЧОРИЕВ

Функциональные особенности вокативных предложений в узбекском и русском языках147

Oybek BARZIYEV

Saylov sikli bilan bog’liq bo’lgan an’anaviy poetik turkumlar.....153

Rajab XIDIROV, Mekkamtosh BO’RONOVA

O’zbek va tojik tillarida frazemalarning semantik xususiyatlari.....160

Alisher O’RAZOV

O’zbek tilshunosligida leksemaning lingvistik tadqiqi.....165

AZIZ MUSHTARIY!

Jurnalimizning ushbu soni turkiy dunyoning boy til merosini global istiqbol nuqtayi nazaridan ko'rib chiqadi. Maqolalarning asosiy yo'nalishini turkiy dunyoning integratsiya jarayoni, global taraqqiyoti, umumiy alifbo va til birligi borasidagi sa'y-harakatlar tashkil etadi. YUNESCOning Samarqandda bo'lib o'tgan 43-Bosh konferensiyasida qabul qilingan “15-dekabr – Butunjahon turkiy tillar kuni” qarori turkiy dunyo madaniy merosining jahon miqyosida tan olinishidagi tarixiy burilish nuqtasi bo'ldi. Ushbu sonda Xiva xonligi yodgorligi bo'lmish “Kalila va Dimna-i Turkiy” qo'lyozmasidan tortib, “Alisher Navoiy” romanining matnlararo manbalarigacha bo'lgan ko'plab mavzular turli jihatlaridan tadqiq etilgan. Kognitiv tilshunoslik doirasida o'zbek va rus tillari o'rtasidagi funksional bog'liqliklar hamda frazeologik birliklar, Ozarbayjon dialektologiyasining izlari, qirg'izchadagi qishloq xo'jaligi metaforalari va etnografik tadqiqotlar fanlararo yondashuv asosida tahlil qilingan. Adabiyot va tarix nuqtayi nazaridan esa Chingiz Aytmatov ijodi hamda zamonaviy she'riyatda ayol obrazining mafkuraviy in'ikosi o'rganilgan; Janubiy Orol bo'yining markaziy shahri Qo'ng'irotning rivojlanishi va Rossiya imperiyasi arxivlaridagi “tarjimonlik” masalasi yoritib berilgan. Tahririyat hay'ati sifatida turkiy dunyoning ma'muriy, ijtimoiy va lisoniy rivojlanishiga xizmat qiluvchi ushbu boy ilmiy merosni sizlarga taqdim etayotganimizdan g'oyat mamnunmiz.

TAHRIRIYAT

DEAR READER!

This issue of our journal explores the deep-rooted linguistic heritage of the Turkic world from a global perspective. The central themes of the articles focus on the integration processes of the Turkic world, its global trajectory, and ongoing efforts toward the establishment of a common alphabet and linguistic unity. The resolution adopted at UNESCO's 43rd General Conference in Samarkand to declare December 15 as World Turkic Languages Day stands as a historic milestone, affirming the cultural heritage of the Turkic world on a global scale. In this issue, a wide range of topics is examined in depth, ranging from the Kelile ve Dimne Türkî manuscript, a legacy of the Khiva Khanate, to the intertextual sources of the modern Ali-Shir Nava'i novel. Through an interdisciplinary approach, we analyze the functional links and phraseological structures between Uzbek and Russian within the framework of cognitive linguistics, the traces of Azerbaijani dialectology, as well as agricultural metaphors and ethnographic studies in the Kyrgyz language. From a literary and historical perspective, the ideological reflections of female figures in the works of Chingiz Aytmatov and contemporary poetry are scrutinized. Furthermore, the historical development of Kungrad, the central city of the Southern Aral region, and the crucial issue of interpretation reflected in the archival materials of the Russian Empire are brought to light. As the Editorial Board, we take great pride in presenting this collection, which sheds light on the administrative, social, and linguistic evolution of the Turkic world.

EDITORIAL BOARD

SEVGİLİ OKUYUCU!

Dergimizin bu sayısı, Türk dünyasının köklü dil mirasını küresel bir perspektifle ele almaktadır. Yazıların ana eksenini; Türk dünyasının entegrasyon süreci, küresel yolculuğu, ortak alfabe ve dil birliği çalışmaları oluşturmaktadır. UNESCO'nun Semerkant'taki 43. Genel Konferansı'nda alınan “15 Aralık Dünya Türk Dili Günü” kararı, Türk dünyasının kültürel mirasını küresel ölçekte tescilleyen tarihi bir dönüm noktası olmuştur. Bu sayımızda, Hiva Hanlığı yadigarı Kelile ve Dimne-i Türkî yazmasından, modern Ali Şîr Nevâî romanının metinlerarası kaynaklarına kadar pek çok konu farklı boyutlarıyla incelenmiştir. Bilişsel dilbilim bağlamında Özbekçe ve Rusça arasındaki işlevsel bağlar ile frazeolojik yapılar, Azerbaycan diyalektolojisinin izleri, Kırgızcadaki tarım metaforları ve etnografik çalışmalar disiplinlerarası bir yaklaşımla analiz edilmiştir. Edebiyat ve tarih perspektifinde ise Cengiz Aytmatov ve modern şiirde kadın figürünün ideolojik yansımaları irdelenirken; Güney Aral bölgesinin merkez şehri Kungrad'ın gelişimi ve Rus İmparatorluğu arşivlerindeki “tercümanlık” meselesi gün yüzüne çıkarılmıştır. Yayın Kurulu olarak; Türk dünyasının idari, sosyal ve dilsel gelişimine ışık tutan bu birikimi sizlerle buluşturmanın kıvançını yaşıyoruz.

YAYIN KURULU

УВАЖАЕМЫЙ ЧИТАТЕЛЬ!

Данный выпуск нашего журнала рассматривает огромное языковое наследие тюркского мира в глобальной перспективе. Основное направление статей составляют процессы интеграции тюркского мира, его глобальный путь, а также исследования в области создания единого алфавита и языкового единства. Решение о провозглашении «15 декабря – Всемирным днем тюркского языка», принятое на 43-й Генеральной конференции ЮНЕСКО в Самарканде, стало историческим поворотным моментом, закрепившим культурное наследие тюркского мира на мировом уровне. В данном номере с различных ракурсов проанализировано множество тем: начиная от рукописи «Калила и Димна-и Тюрки», наследия Хивинского ханства, до интертекстуальных источников современного романа об Алишере Навои. С междисциплинарной точки зрения исследованы функциональные связи и frazeologicheskie структуры узбекского и русского языков в контексте когнитивной лингвистики, следы азербайджанской диалектологии, сельскохозяйственные метафоры в киргизском языке и этнографические работы. С позиций литературы и истории рассматривается идеологическое отражение образа женщины в творчестве Чингиза Айтматова и современной поэзии, а также освещаются вопросы развития города Кунград — центра Южного Приаралья и проблемы «переводческого дела» в архивах Российской империи. Редакционная коллегия выражает гордость за возможность представить вам этот богатый материал, проливающий свет на административное, социальное и лингвистическое развитие тюркского мира.

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИИ

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LEKSEMANING LINGVISTIK TADQIQI

O‘RAZOV Alisher Doniyorovich,

Guliston davlat universiteti

O‘zbek tilshunosligi kafedrası o‘qituvchisi

(Guliston, O‘zbekiston)

 **E-mail:** orazovalisher96@gmail.com

 **ORCID:** [0009-0006-3924-4231](https://orcid.org/0009-0006-3924-4231)

 **DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18327205>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida so‘zga xos xususiyatlar va uning tadqiqi masalasi uzoq davrlardan beri o‘rganib kelinadi. Bu bizga o‘zbek tilshunosligining tarixidan ma’lum. Tilimizning yaqin o‘tmishiga nazar tashlasak, zamonaviy o‘zbek tilshunosligida leksikologiya bo‘limining jiddiy tadqiqi XX asrdan boshlanganligining guvohi bo‘lamiz. Leksema bo‘yicha A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev, I.Qo‘chqortoyev, B.Mengliyev, R.Sayfullayeva, A.Nurmonov, M.Mirtojiyev, H.Ne‘matov kabi tilshunos olimlarning tadqiqot ishlarida talqin qilingan. Leksema va so‘z munosabati til va nutq bog‘liqligining o‘zaro aloqadorligining muayyan birliklardagi aniq ko‘rinishi ekanligi, o‘zbek tilida leksema va uning lisoniy tabiati va nutqiy voqelanishi, leksemaning til qurilish birligi sifatidagi mavqeyi, yasama so‘zning lisoniylashib leksemaga aylanishi, o‘zbek tilining o‘z tabiati bo‘yicha leksema va morfemaning bir-biridan farqi (yetakchi morfema va ko‘makchi morfema), leksemaning alohida til qurilish birligi ekanligi haqida o‘zbek tilshunos olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy-tahliliy tadqiqotlar, shuningdek, leksemaga oid ayrim qarashlar va fikrlar tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: *leksikologiya, leksik sath, so‘z, leksema, til sistemasi, dialektika, til birligi, morfema.*

ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЛЕКСЕМ В УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

УРАЗОВ Алишер Дониёрович

Гулистанский государственный университет

Преподаватель кафедры узбекского языкознания

(Гулистан, Узбекистан)

Аннотация: В данной статье на протяжении длительного времени изучаются особенности слов и их исследование в узбекском языкознании. Это известно нам из истории узбекского языкознания. Если мы посмотрим на недавнее прошлое нашего языка, то увидим, что серьезное изучение лексикологии в современном узбекском языкознании началось еще в XX веке. Лексема интерпретируется в исследованиях таких лингвистов, как А. Ходжиев, Ш. Рахматуллаев, И. Кочкортеев, Б. Менглиев, Р. Сайфуллаева, А. Нурмонов, М. Миртоджиев, Х. Неъматов. То, что взаимосвязь лексемы и слова является ярким проявлением взаимосвязи языка и речи в отдельных единицах, лексема и ее языковая природа и речевая реализация в узбекском языке, положение лексемы как языковой строительной единицы, лингвистическое преобразование искусственных слов в лексемы, отличие лексем и морфем по природе узбекского языка (базовая морфема и аффиксная морфема), Научно-аналитические исследования, проводимые узбекскими лингвистами о лексеме как самостоятельная языковая единица, а также анализируются некоторые взгляды и мнения о лексемах.

Ключевые слова: лексикология, лексический уровень, слово, лексема, языковая система, диалектика, языковая единица, морфема.

LINGUISTIC RESEARCH OF LEXEMA IN UZBEK LINGUISTICS

URAZOV Alisher

Gulistan State University

Teacher of the Department of Uzbek Linguistics

(Gulistan, Uzbekistan)

Abstract: In this article, the specific features of words and their research in Uzbek linguistics are examined from a historical perspective. This can be observed from the history of Uzbek linguistics. When we look at the recent past of our language, we can see that the systematic study of lexicology in modern Uzbek linguistics began in the 20th century. The lexeme is interpreted in the research works of such linguists as A. Hojiyev, Sh. Rakhmatullayev, I. Kochkortoyev, B. Mengliyev, R. Sayfullayeva, A. Nurmonov, M. Mirtojiyev, and H. Ne'matov. The article analyzes scientific and analytical studies conducted by Uzbek linguists on the lexeme as a distinct language-forming unit, including the relationship between lexeme and word as a manifestation of the interaction between language and speech, the linguistic nature of the lexeme and its realization in speech in Uzbek, the position of the lexeme as a structural unit of language, the linguistic transformation of artificially created words into lexemes, as well as the distinction between lexemes and morphemes (base morphemes and affixal morphemes) in accordance with the typological features of the Uzbek language. Some scholarly views and interpretations of the lexeme are also discussed.

Key words: *lexicology, lexical level, word, lexeme, language system, dialectic, language unit, morpheme.*

Kirish. Ma'lumki, til sathlari orasida leksik sathning o'rni nihoyatda ahamiyatli ekanligi keyingi tadqiqotlarda yanada oydinlashdi. O'zbek sistem tilshunosligi taraqqiyotining dastlabki davrida leksema til birligi sifatida sanab o'tilmadi, lekin ma'lum bo'ldiki, leksema til qurilish birligining eng asosiy tipik birligi ekan. Bu haqida Ferdinand de Sossyurning ham mulohazasini keltirib o'tish o'rinli, ya'ni "Til –tushunchalarni ifodalovchi belgilar sistemasidir", – deb ta'rif berib, fonema, morfema, leksema (so'z), so'z birikmasi va gapni sanaydi. Shu til belgilari orasida eng tipik lisoniy belgi – leksema (so'z) hisoblanishini aytib o'tgan edi. "Bu xulosa shuning uchunki, insoniy bilimlarning barchasi va predmetlarning obrazlari orqali bilish ajdodlarning fikrlash jarayonining natijasi sifatida so'zlarda o'z ifodasini topgan. Shunday qilib, so'z birligi akumlyativ ma'noga ega, u ya'ni ilgari jamlanib kelinayotgan axborotlar yig'indisidan iborat" (Mengliyev, 2002: 26). E'tibor bersak, yuqoridagi fikrlar mustaqil ma'noli tushuncha anglatadi oladigan leksemalar (so'zlar) bo'lib, ular tavsiflovchi, ta'riflovchi belgilarga ega. Til sistemasi va strukturasida leksik sathning tutgan o'rnini ochib berish, unga xos bo'lgan umumiy hamda xususiy qonuniyatlarni aniqlash, leksemalarning paradigmatic (ichki), syntagmatic (tashqi) va pragmatic (nutqiy-uslubiy) xossalari asosida o'zbek tilining leksik sathidagi semantik maydonlarni topish hamda tadqiq qilish bugungi kunda o'zbek tilshunosligining oldida ko'ndalang bo'lib turgan asosiy masalalardan biridir. "Til egasi ongida borliqdagi ma'lum bir voqelik bilan bevosita aloqada bo'lgan lisoniy birlik sifatida qarash lozim" (Mengliyev, 2002: 16).

So'z-leksema muayyan mazmunning, ma'noning, sememaning shakli, formasidir. Shuningdek, morfemalar (asos va affikslar) ham muayyan ma'noni, mazmunni ifodalash shakli

(formasi) hisoblanadi. Bunda yetakchi morfema leksik ma’noning, ko‘makchi morfema esa grammatik ma’noning formasi, ifodalovchisi bo‘lib keladi. Demak, morfemalar ham shakl va mazmun munosabatini o‘zida tashiydi [Rasulov, 2006: 29].

Tadqiqotning obyekti va qo‘llanilgan metodlar. Borliqdagi muayyan moddiy va nomoddiy narsa, hodisa, voqeliklarni ushbu yo‘llar orqali qabul qilishi haqida o‘z munosabatini bildirib quyidagilarni yozadi, ya’ni I.P.Pavlov ta’limoti bo‘yicha inson obyektiv borliqni ikki xil yo‘l bilan qabul qiladi:

a) predmet - hodisalarning kishi sezish (eshitish, ko‘rish, ta’im bilish) a’zolariga bevosita ta’siri orqali - birinchi signallar istemasi;

b) so‘zlarning ta’siri orqali - ikkinchi signallar sistemasi [Rasulov, 2006: 43].

Ikkinchi signallar sistemasi insonlar tomonidan yaratilgan shartli belgi bo‘lib, so‘z-leksema ifodalaydigan tushuncha signifikat deb ataladi. Leksema vositasida nomlanuvchi, ataluvchi narsa-buyum yoki hodisa denotat hisoblanadi Denotat bilan bog‘liq, uni bevosita bildiruvchi ma’no esa denotativ ma’no deb yuritiladi. Demak, inson mana shu denotativ ma’no orqali ataluvchi narsa-buyum yoki hodisani tasavvur qiladi, angelaydi.

Professor R.Rasulov til sistemasida o‘ziga xos mikrosistemaga, leksemaga, quydagicha ta’rif beradi: “Muayyan birlik bo‘lgan so‘z (leksema) ikki planli belgi sifatida tovush va ma’no, ifoda va mazmun tomonlarining dialektik bog‘liqligidan iborat bo‘lib, nominativ birlik holatida ijtimoiy vazifa bajaradi. So‘z (leksema) muayyan birliklar ichida ham shaklan, ham mazmunan – sifat jihatdan mukammal bo‘lib, tilning ijtimoiy vazifa bajarishida semantik – funksional yetakchilik qiladi, qudratli vosita – mikrosistema hisoblanadi” [Rasulov, 2006: 43].

Olingan natija va ularning tahlili. Leksemalarning ifoda va mazmun rejaları orasidagi munosabat antonim, sinonim, omonim, paronim deb nomlanuvchi leksik mikrosistemalarni belgilashda ham hisobga olinadi. Sistem-struktur tilshunoslikda esa bevosita kuzatishda berilmagan, faqat nutqqa tayanilgan holda aqliy yo‘l bilan ochiladigan til birliklarining tabiati dialektik umumiylik, imkoniyat va mohiyat sifatida tushuniladi hamda bu tilshunoslik dialektik umumiylik, imkoniyat va mohiyatni ochish usullari – dialektik, radionalistik (aqliy) tahlil metodologiyasiga asoslanadi. Dialektik tahlil metodologiyasi falsafiy va boshqa ilmiy adabiyotlarda nazariy bilimlar metodologiyasi deb ham ataladi [Me’matov, 1993].

XX asr fanidan mustahkam o‘rin ola boshlagan dialektik usulning mohiyati shunda ediki, bu usul tadqiqotchilarni narsa va hodisalarning bevosita tashqi kuzatilishida (ko‘rish, eshitish, o‘lchash kabilarda) aks etadigan xususiyatlarini tavsiflash bilan aralashtirmaslikka, balki bu xususiyat va xossalarning zaminida yotgan mohiyatni aqlanf anglashga hamda tushuntirishga undadi. Dialektika, mentalfizikadan farqli o‘laroq, borliq va ongning rangbarang xususiyatlari har doim o‘zaro aloqadorlik, bog‘liqlikda olib o‘rganilmog‘i lozimligini ko‘rsatadi.

Tilning turli qirralarini uzviy tarzda birlashtirib, uni yaxlit bir butunlik, bir sistema sifatida o‘rganuvchi tilshunoslik asrimizning XX yillarida shakllandi va sistem-struktur tilshunoslik nomi bilan mashhur bo‘ldi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, Ferdinand de Sossyur asos solgan XX asr sistem tilshunosligi bag‘rida o‘nlab yangi lingvistik oqim va maktablar vujudga keldi, ularda ulkan zamonaviy yutuqlar qo‘lga kiritildi.

Istiqlol hamma fan, hamma soha bo‘yicha jiddiy ilmiy tadqiqot olib borishga keng yo‘l ochdi. O‘zbek tilshunosligini Yevropa, ayniqsa, rus tilshunosligi andozasi ta’siridan chiqardi. Endi o‘zbek tilshunosligi mustaqil tarzda, asosan, o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda til hodisasini baholash yo‘lini tanladi. Albatta, tadqiqot ko‘lami kengaydi. Ular ishlarida leksema va so‘z, leksemaning mazmun-mundariyasi va uning tarkibiy

qismlari, birikuvchanlik imkoniyatlari, paradigmatic qatorlari va munosabatlari kabi masalalar atroficha tekshirila boshlandi.

Leksema va soʻz umumiylik va xususiylik dialektikasi bilan bogʻlangan boʻlib, soʻz xususiylik sifatida umumiylikning – leksemaning amaldagi koʻrinishi, harakati, muayyan vazifa bajarishidir. Leksema va soʻz munosabati aslida til va nutq bogʻliqligining, oʻzaro aloqadorligining muayyan birliklardagi aniq koʻrinishi, tasdigʻidir. Xullas, leksema termini “tilning lugʻat tarkibiga mansub soʻz”, “lugʻaviy maʼnoli soʻz” degan maʼnoda, soʻzning bir vazifasidagina qoʻllanadi. Qolgan hollarda “soʻz” oʻrnida “leksema” qoʻllanmaydi. Masalan, soʻz yasalishi, soʻz shakli, soʻz urgʻusi, soʻz birikmasi, soʻzlarning paydo boʻlishi, lugʻatning soʻzligi v. h. [Hojiyev, 2010; 19].

Professor H.Neʼmatov: “Tilning nomlash, ifodalash, koʻrsatish uchun xizmat qiladigan ideal xotira birligi leksemadir”, – deya leksemaning asosiy xususiyatlarini koʻrsatib oʻtadi [Neʼmatov, 1993: 8].

Oʻzbek tilida leksema nima ekanligi nuqtayi nazaridan aytganimizda, bilamizki, Yevropa tillari Hind-Yevropa til oilasiga mansub boʻlib, Oltoy tillar oilasiga kiruvchi turkiy boʻlgan oʻzbek tilidan har tomonlama farq qilishi maʼlum. Bu farq, masalan, ishimizga taalluqli boʻlgan leksema misolida koʻrib oʻtsak. Oʻzbek tilshunosligida sistem tilshunoslikning taraqqiy etayotgan dastlaki paytlarida leksema til birligi sifatida sanab oʻtilmagani shu davrda yaratilgan tilshunoslik adabiyotlaridan maʼlum, masalan, H.Neʼmatov va R.Rasulovlarning “Oʻzbek tili sistem leksikologiya asoslari” kitobida til birliklari sifatida asosan quyidagilarni sanab oʻtilgan:

- 1) fonema;
- 2) morfema;
- 3) qolip (konstruksiya, qurilma, model) [Neʼmatov, Rasulov, 1995: 12-22].

Shu davr oʻlaroq, hali leksema til birligi sifatida koʻrilmay yuqorida sanab oʻtilganlar muayyan moddiy koʻrinishda nutqda voqelashib, namoyon boʻluvchi – oʻzgarmas birliklar [Neʼmatov, Rasulov, 1995: 22] tushinilishi, nazarda tutilishi aytiladi va tilshunoslar tomonidan toʻlalagicha til birligi sifatida hali qabul qilinmagan edi. Leksema toʻlaqonli til qurilish birligi sifatida oʻzbek tilining tabiatini hisobga olgan holda tadqiq qilgan akademik A.Hojiyev, professor B.Mengliyev kabi olimlar flektiv boʻlgan tillaridagi leksema talqini bilan agglyutinativ tillardagi leksema talqinida katta farq borligi, leksema nazariy tilshunoslikka tayangan hind-yevropa tillari leksemalari bilan qanday munosabatda degan muammoning qoʻyilishi va hal etilishi mazkur masala yechimiga olib keluvchi asosiy omil ekanligini keltirib oʻtadi. Lisoniy birlikka oid boʻlgan morfema va leksemani chegaralab, turkiy tillar uchun oʻzak va morfema bir-birini qoplovchi hodisalar emasligini [Mengliyev, 2002; 20] taʼkidlab oʻtadilar. Professor B.Mengliyev ularni bir-biriga oʻzbek tilining tabiatidan kelib chiqib ikki til birligini (leksema va morfemani) solishtirar ekan, dastlab oʻxshash tomonlari haqida quyidagilarni keltiradi:

- ikkalasi ham tilning eng kichik maʼnoli boʻlagi;
- ularning bu jihati bilan fonema bilan ziddiyatda boʻlishi;
- oʻzak ham, morfema ham yaxlitlik, umumiylik, tayyorlik, majburiylik, takrorlanuvchanlik xossalari ega.

Shuningdek, olim farqli tomonlari haqida ham fikr bildirib, har ikkisi boshqa-boshqa til birligi ekanligini ularning ilmiy taʼrifdagi tafavut orqali bilib olish mumkinligini keltiradi. Masalan:

- leksema kishi ongida aniq denotativ maʼnoga ega boʻlib, borliqning biror boʻlagi bilan aloqador holda idrok qilinishi;

– morfema mustaqil denotativ emas, nisbiy ma’naviy mustaqillikka ega bo‘lib bog‘lanishlarsiz real ma’no kasb etmasligi.

Shuningdek, bu borada, ya’ni morfema va leksema talqiniga doir ilmiy izlanishlar olib borgan akademik A.Hojiyev ham o‘z munosabatini bildirib o‘tadi. Morfema haqida ikki xil fakt mavjud ekanligini aytadi olim, ya’ni:

1) so‘zning ma’noli qismlarini morfema deb qarash va shunday qismlarning mohiyatini o‘rganish;

2) morfemani til birligi, til qurilishining asosiy birliklaridan biri hisoblash va shunday birlik sifatida uning, u bilan bog‘liq hodisalarning mohiyatini tadqiq etish [Hojiyev, 2010; 23]. Olimning ta’kidlashicha, morfemani bunaqa ikki xil tushinish, uning tahlilida ham turli xatoloklarni, noto‘g‘ri xulosalarni keltirib chiqaradi. Olim morfema bilan bog‘liq chalkashlikning kelib chiqishi ayrim tilshunoslikka, jumladan, rus tilshunosligiga oid adabiyotlarda morfema yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar o‘zbek tilshunosligiga ko‘chirilyapti hamda “morfema” deb atalayotgan til birligi o‘zbek tilining tabiatidan kelib chiqib belgilanmaganligini [Hojiyev, 2010; 24] ketirib o‘tadi. Akademik A.Hojiyev morfema masalasi bo‘yicha “asos morfema” va “affiks morfema” kabi terminlar noto‘g‘ri ekanligini aytib, shu terminlarni qo‘llaganlarni ham tanqid qilib o‘tadi va ushbu misol orqali o‘z munosabatini keltiradi. Masalan, ish – so‘z, leksema, *-chi*, *-par*, *-imiz*, *-ga* morfemalar hisoblanadi, ya’ni bu morfemalar esa faqat ish so‘zining morfem tarkibini hosil qiluvchi, faqat ish so‘zi bilan qo‘llanuvchi birliklar emas, balki ular tilda mavjud bo‘lgan so‘zlardan yasama so‘z va so‘z shakllarini hosil qiluvchi tayyor birliklar morfemalardir.

Bundan tashqari, akademik A.Hojiyev o‘zbek tilida leksema talqiniga tanqidiy-tahliliy yondashib, uni til birligidagi aniq o‘rnini belgilashni maqsad qilib oladi. O‘zbek tilida kuzatilayotgan ayrim holatlarga e’tiborini qaratadi. Aytaylik, “leksema” va “so‘z” terminlari yoma-yon ishlatilib kelingani (birining o‘rnida birining qo‘llanilishi), masalan, “so‘zning shakl va ma’no jihati”, so‘zning atash (nomlash) vazifasi”, “yasama so‘z” kabilarda “leksema” terminini emas, “so‘z” terminini qo‘llash, hozircha, umumiy holat hisoblanishini [Hojiyev, 2010; 79] keltirib o‘tadi. Akademik A.Hojiyev leksemaga oid yaratilgan tadqiqotlarga ham o‘z munosabatini bildirib, tadqiqotchilarning talqinlarga e’tiborini qaratadi. Shulardan biri sifatida professor Sh.Rahmatullayevning “Til qurilishi birliklari” kitobida qo‘llangan “tub leksema” va “yasama (hosila) leksema” terminlariga o‘z mulohazasini bildirib o‘tadi. Akademik A.Hojiyevning ta’kidlashicha, yasama so‘z lisoniylashib barcha uchun tushunarli holatga o‘tgandan keyin, ya’ni leksemaning asosiy xususiyati bo‘lmish tayyorlik, umumiylik, majburiylik kabilarni o‘zida mujassam etgan “yasama so‘z” leksema bo‘lishini aytadi (“yasama so‘z” lisoniylashmaguncha leksema bo‘la olmasligi haqidagi ta’rifni H.Ne’matov va R.Rasulovning “O‘zbek tili sistem leksikologiya asoslari” risolasida ham kuzatish mumkin).

Keyingi tadqiqotlardan ma’lum bo‘ldiki, leksema tub so‘zlar yoki “yasovchi va yasalishga asos bo‘luvchi o‘zaklarning birikmasi”ga mos ko‘rinsa-da, ammo leksemadagi tayyorlik belgisi va dialektik holati uning asosiy xususiyatidir. Umuman olganda, yasama so‘zlar, o‘zlashgan so‘zlar va tilning ichki imkoniyati orqali paydo bo‘lgan so‘zlar hamma uchun tushunarli bo‘lib ommalashgandan keyin lisoniy tus oladi va leksemalashadi. Professor Sh.Rahmatullayev ham leksema va morfema terminlariga o‘z munosabatini bildirib, leksema o‘z turkumi nuqtayi nazaridan grammatik tavsif olganidan keyingina butun holatiga o‘tadi va nutqqa chiqadi. Morfema ham odatda o‘zi mansub turkum leksemasiga qo‘shilgan holda nutqqa chiqadi deya ta’rif berib o‘tadi va shu misol bilan tushintiradi, masalan, *keldim* birligining oxiridagi qismi morfemaga teng;

uning ifoda jihati bo‘lib *m* fonemasi xizmat qiladi; mazmun jihati esa I shaxs birlikka nisbat berish ma’nosidan iborat [Rahmatullayev, 2002: 125].

Umuman olganda, professor Sh.Rahmatullayevning tadqiqotlari bilan tanishganimizda, leksema bo‘yicha o‘z munosabatini quyidagicha bayon qiladi. Masalan, olimning “Til qurilish birliklari” nomli ilmiy risolasida leksemaning nutqiy ko‘rinishini “leks” termini bilan nomlab, ammo leksemaning nutqiy ko‘rinishi “so‘z” bo‘la olmasligini ta’kidlaydi, shuningdek, “Hozirgi adabiy o‘zbek tili” asarida (2010) leksemani “leksosema” termini bilan nomlaydi. Professor Sh.Rahmatullayev boshqa tilshunoslardan farqli o‘laroq, “leksemashakl” terminini ham qo‘llaydi. Olimning yozishicha, leksemaga morfemalarning birikishidan lisoniy leksemashakl yuzaga kelishini aytib, shunday izohlaydi, ya’ni miyadagi til xotirasi qismida “leksemashakl”ni qanday tuzish haqida axborot bor va shu tilda gapiruvchi har bir kishi amal qiladi, masalan, *qo‘llarimda* o‘rniga *qo‘ldalarim* yoki *qo‘limlarda* kabi shaklda tuzish mumkin emas, deya tushuntirib, miyadagi til xotirasida ramz sifatida leksema morfema va shulardan foydalanish qoidalari turadi [Rahmatullayev, 2010: 136] (til xotirasida modellar mavjud bo‘lib, shu modellar orqali tuziladi va nutqiy reallashishini keltirib o‘tadi olim). Leksema va morfema yuzaga kelgan “leksemashakl”ni tuzma til birligi deb nomlaydi. Olim morfemani modelning leksema qismini to‘ldirishga xizmat qiluvchi til birligi sifatida ko‘radi. Shuning bilan birga professor Sh.Rahmatullayev leksema va morfemani alohida-alohida til birligi deb hisoblaydi. Masalan, til birligi uchun muhim jihat – mazmun jihatidir [Hojiyev, 2010: 79]. Shu nuqtayi nazardan til birligi sifatida leksema va morfema bir-biridan keskin farq qiladi. Professor Sh.Rahmatullayevning talqinicha leksema til birligi sifatida fonemalar tizimiga ma’lum bir mazmunni yuklash bilan yuzaga keladi [Rahmatullayev, 2010: 136-137]. Olimning leksema bo‘yicha ilmiy izlanishlari keyingi tadqiqotlarlar uchun yo‘l ochib berdi.

Xulosa. Yevropa tilshunosligi yutuqlaridan keng foydalangan holda o‘zbek ilmiy tilshunosligini ham dunyo tilshunosligida o‘z mavqeyiga ega tilshunoslikka aylantirish uchun samarali tadqiqotlar olib borilmoqda. Zamonaviy o‘zbek ilmiy tilshunosligining yaqin o‘tmishidan ma’lumki, tilning o‘z xususiyatidan kelib chiqqan holda uning sathlarini ajratish, sathlararo munosabatini tekshirish va ularga to‘g‘ri ta’rif berish maqsad qilib olindi. Shu jumladan, lug‘at sathi bo‘yicha ham o‘zbek tilshunosligida ko‘plab tadqiqotlar olib borildi, olib borilmoqda. Bu tadqiqotlarda sistem leksikologiya bo‘yicha ham, ananaviy leksikologiya bo‘yicha ham har tomonlama mukammal tadqiqotlar yaratildi, fikr-mulohazalar o‘rtaga tashlandi, muammolarga yechim izlandi. Shunday muammolardan biri o‘zbek tilida leksema masalasi bo‘ldi. Leksema talqini bo‘yicha A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev, I.Qo‘chqortoyev, B.Mengliyev, R.Sayfullayeva, A.Nurmonov, M.Mirtojiyev, H.Ne‘matov kabi tilshunos olimlar leksemaning ta’rifi, lisoniy xususiyati, til birligi ekanligi, nutqiy reallashishi, leksemaning so‘zdan farqli tomonlari haqida yirik tadqiqot ishlarini yaratishdi va bu orqali o‘zbek tilshunosligida leksema haqida, so‘z haqida ilmiy asoslangan nazariyalar maydonga keldi.

Iqtiboslar/ References/ Kaynaklar/ Сноски:

1. Mengliyev B. Lisoniy tizim yaxlitligi va unda sathlararo munosabatlar: Filol. fan. dok... diss. avtoref. – Toshkent, 2002. – 46 b.
2. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent: O‘qituvchi, 2006. – 256 b.
3. Ne‘matov H., Bozorov O. Til va nutq. –Toshkent: O‘qituvchi, 1993. – 32 b.
4. Hojiyev A. O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi, so‘z yasallashining nazariy masalalari. – Toshkent: Fan, 2010. – 261 b.

5. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 127 b.
6. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – 297 b.
7. Rahmatullayev Sh. Til qurilish birliklari. – Toshkent: Universitet, 2002. – 27 b.

**BULLETIN OF THE
INTERNATIONAL JOURNAL
“TURKOLOGICAL
RESEARCH”**

In order to implement programs and projects developed to accelerate the relationship envisaged at the summit of the Organization of Turkic States held in Samarkand, as well as to coordinate and highlight the research work carried out in the field of Turkic studies, the International Journal “Turkological Research” at Samarkand State University named after Sharof Rashidov passed the state registration. The journal is intended to publish the results of scientific research in the field of Turkic languages and dialects, the history of linguistic and literary relations of the Turkic peoples of Central Asia, the socio-cultural field. There are such headings as a young researcher, memory and our anniversaries. Articles written in Uzbek, Turkish, Russian, English and all Turkic languages are accepted.

The scientific journal is based on the decision of the Higher Attestation Commission of the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan dated May 8, 2024 and numbered 354/5; It is included in the list of scientific publications that are recommended for candidates to receive the Doctor of Philosophy (PhD) and Doctor of Science (DSc) academic degrees in the fields of history and philology to publish their scientific results due to their theses.



**THE JOURNAL PUBLISHES ARTICLES
IN THE FOLLOWING AREAS:**

- ✓ History of socio-cultural relations of the Turkic peoples;
- ✓ Research of the Turkic World;
- ✓ Dialectology of Turkic languages;
- ✓ Geopolitics of the Turkic World;
- ✓ Folklore Studies;
- ✓ Comparative Linguistics and Literary Studies;
- ✓ Literary Relations and Translation Studies.

CONTACT ADDRESS:

Mailing Address:

140104, University boulevard, 15,
Samarkand, Uzbekistan,
Research Institute of Turkology under
Samarkand State University named after
Sharof Rashidov

Phone:

+998 91 527 68 22

+998 99 596 35 69

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya2025

Email:

turkologiya.samdu@gmail.com

Website:

<https://turkologiya.samdu.uz>



REQUIREMENTS FOR ARTICLES:

- The article is presented on 8-10 pages;
- Article structure:
 1. The text of the article should be prepared in Times News Roman font, size 14, left: 3 cm, right: 1.5 cm, top and bottom: 2 cm; in A4 format in 1.15 intervals.
 2. The title of the article, surname, name and patronymic of the author (authors) are indicated in full and written in capital letters.
 3. Position, academic title, place of work (study), region, republic, telephone number, email address and ORCID number of the author (authors) are indicated in full.
 4. The abstract should consist of a brief content and importance of the article, results.
 5. At the beginning of each article, there should be an annotation in 2 other languages (optionally selected from Uzbek, English, Russian and Turkish) in addition to the language in which the article is written.
 6. The abstract should be no more than 120-150 words.
 7. At the bottom of the abstract, 7-10 keywords should be given that illuminate the content of the article.
 8. The article should be prepared in the following form:
 - a) Introduction;
 - b) Main part;
 - c) Results and Discussions;
 - d) Conclusions;
 - e) List of literature (References) – in alphabetical order;
 - f) Citations are given in brackets in the form of the author's surname - date of publication - page (Muminov, 2020: 25);
 - g) Figures, drawings, tables, diagrams are designated in Arabic numerals as “Figure”. Signs or pointers are placed under the figure, in the next line, in the middle and highlighted in bold.
- The topic of the scientific article submitted by the author (or co-authors) must correspond to the journal's columns.
- Articles can be submitted in Uzbek, English, Russian, and all other Turkic languages
- The author(s) are responsible for the scientific validity, reliability and plagiarism of the information and evidence presented in the article;
- Articles will be considered. The journal publishes only articles recommended by experts;
- Articles not requested will not be published and will not be returned to the authors;
- Only 1 article of the author is published in 1 issue of the journal.

“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO JURNALINING AXBOROT XATI

Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy-ma’rifiy, ilmfanni rivojlantirishga qaratilgan siyosat, Turkiy Davlatlar Tashkilotining Samarqandda o’tkazilgan sammitida ko’zda tutilgan o’zaro aloqalarni jadallashtirish bo’yicha ishlab chiqilgan dastur va loyihalarni amalga oshirish hamda turkologiya sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish va yoritish maqsadida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida “Turkologik tadqiqotlar” xalqaro jurnali ta’sis etildi. Jurnal turkiy til va shevalar, Markaziy Osiyo turkiy xalqlari lisoniy va adabiy aloqalari tarixi, ijtimoiy-madaniy sohalarda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalarini e’lon qilishga mo’ljallangan. Jurnalda muharrir minbari, tadqiqotlar, ilmiy axborot, taqriz va e’tirof, ilmiy anjuman, yosh tadqiqotchi, xotira, yubilyarlarimiz kabi ruknlar mavjud. O’zbek, turk, rus, ingliz va barcha turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Ilmiy jurnal O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAKning 2024-yil 8-maydagi 354/5-sonli rayosat qarori asosida tarix, filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.



JURNAL QUYIDAGI YO’NALISHLARDAGI MAQOLALARNI NASHR QILADI:

- ✓ Turkiy xalqlarning ijtimoiy-madaniy aloqalari tarixi
- ✓ Turk dunyosi tadqiqotlari
- ✓ Turkiy tillar dialektologiya
- ✓ Folklorshunoslik
- ✓ Qiyosiy tilshunoslik va adabiyotshunoslik
- ✓ Adabiy aloqalar va tarjimashunoslik.

MUROJAAT UCHUN MANZIL:

Pochta manzili:

140104, Universitet xiyoboni, 15-uy,
Samarqand, O‘zbekiston,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti huzuridagi
Turkologiya ilmiy-tadqiqot instituti

Telefon:

+998 91 527 68 22

+998 99 596 35 69

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya2025

Elektron pochta:

turkologiya.samdu@gmail.com

Veb-sayt:

<https://turkologiya.samdu.uz>



MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

- Maqola 8-10 sahifa hajmida taqdim etiladi;
- Maqolaning tarkibiy tuzilishi:
- 1. Maqola matni Times News Roman shriftida, 14 kattalikda, chap: 3 sm, o‘ng: 1,5 sm, yuqori va quyi: 2 sm; 1,5 intervalda, A4 shaklida tayyorlanishi lozim.
- 2. Maqola sarlavhasi, muallif(lar)ning familiyasi, ismi va otasmi to‘liq holatda katta harflar bilan yozilishi kerak.
- 3. Muallif(lar)ning lavozimi, ilmiy unvoni, ish (o‘qish) joylari, viloyat, Respublika, telefon raqami, elektron pochta manzili va ORCID raqqami to‘liq keltirilishi kerak.
- 4. Annotatsiya, maqolaning qisqacha mazmun va ahamiyati, natijalardan iborat bo‘lishi lozim.
- 5. Har bir maqola boshida maqola yozilgan tildan tashqari yana 2 tilda (o‘zbek, ingliz, rus va turk tillaridan ixtiyoriy ravishda tanlanadi) annotatsiya bo‘lishi lozim.
- 6. Annotatsiya 120-150 so‘zdan ko‘p bo‘lmagan shaklda bo‘lishi kerak.
- 7. Annotatsiyaning pastki qismida maqola mazmunini yorituvchi 7-10 ta tayanch so‘zlar keltirilishi kerak.
- 8. Maqola quyidagi shaklda tayyorlanishi kerak:
 - a) Kirish (Introduction);
 - b) Asosiy qism (Main part);
 - c) Natijalar va muhokama (Results and Discussions);
 - d) Xulosalar (Conclusions);
 - e) Adabiyotlar (References) – alifbo tartibida keltiriladi;
 - f) Havola(snoskalar)lar qavsda muallif familiyasi – nashr sanasi – sahifasi (Mo‘minov, 2020: 25) shaklida keltiriladi;
 - g) Rasm, chizma, jadval, diagrammalar «Rasm» deb arab raqamlari bilan qayd etiladi. Belgi yoki ishoralar – rasm ostida, keyingi qatorda, o‘rtada joylashtiriladi va qoraytirilgan shrift bilan belgilanadi.
- Muallif (yoki hammualliflar) tomonidan taqdim etilayotgan ilmiy maqola mavzusi jurnal ruknlariga mos kelishi shart.
- Maqolalar o‘zbek, ingliz, rus va barcha turkiy tillarda taqdim etilishi mumkin.
- Maqolada keltirilgan ma’lumot va dalillarning ilmiy asoslanganligi, ishonchli va ko‘chirmachilik holatlari uchun muallif(lar) mas’uldir;
- Maqolalar ekspertiza qilinadi. Ekspertlar tomonidan tavsiya etilgan maqolalargina jurnalda chop etiladi;
- Tavsiya etilmagan maqolalar chop etilmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi;
- Jurnalning 1 ta sonida muallifning faqat 1 ta maqolasi chop etiladi.

**БЮЛЛЕТЕНЬ
МЕЖДУНАРОДНОГО ЖУРНАЛА
“ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”**

В целях реализации программ и проектов, разработанных для ускорения взаимоотношений, предусмотренных на состоявшемся в Самарканде саммите Организации Тюркских Государств, а также координации и освещения научно-исследовательской работы, проводимой в области тюркологии, Международный журнал Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова «Тюркологические исследования» прошел государственную регистрацию. Журнал предназначен для публикации результатов научно-исследовательских работ в области тюркских языков и диалектов, истории языковых и литературных связей тюркских народов Средней Азии, социокультурной области. Есть такие рубрики, как молодой исследователь, память и наши юбилеи. Принимаются статьи, написанные на узбекском, турецком, русском, английском и всех тюркских языках.

Научный журнал на основании решения Высшей аттестационной комиссии (ВАК) Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 8 мая 2024 года под номером 354/5; Он включен в перечень научных изданий, рекомендуемых кандидатам на получение ученых степеней доктора философии (PhD) и доктора наук (DSc) в области истории и филологии для публикации своих научных результатов по своим диссертациям.



**В ЖУРНАЛЕ ПУБЛИКУЮТСЯ
СТАТЬИ ПО СЛЕДУЮЩИМ
НАПРАВЛЕНИЯМ:**

- ✓ История социально-культурных отношений тюркских народов;
- ✓ Исследования тюркского мира;
- ✓ Диалектология тюркских языков;
- ✓ Геополитика тюркского мира;
- ✓ Изучение фольклора;
- ✓ Сравнительное языкознание и литературоведение;
- ✓ Литературные отношения и переводоведение.

КОНТАКТНЫЙ АДРЕС:

Почтовый адрес:

140104, Университетский бульвар,
15, город Самарканд, Узбекистан,
Научно-исследовательский
институт Тюркологии при
Самаркандском Государственном
Университете имени Шарофа
Рашидова

Телефон:

+998 91 527 68 22

+998 99 596 35 69

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya2025

Электронная почта:

turkologiya.samdu@gmail.com

Веб-сайт:

<https://turkologiya.samdu.uz>



ТРЕБОВАНИЯ К СТАТЬЯМ:

- К публикации принимаются статьи объемом 8-10 страниц;
- Структура статьи:
 1. Текст статьи должен быть выполнен шрифтом Times News Roman, размером 14 пунктов, слева: 3 см, справа: 1,5 см, сверху и снизу: 2 см; с межстрочным интервалом 1,15, формат листа А4.
 2. Название статьи, фамилия, имя и отчество автора(ов) должны быть написаны заглавными буквами в полном регистре.
 3. Должность, ученое звание, места работы(учебы), регион, Республика, номер телефона, адрес электронной почты и ORCID-номер автора(ов) должны быть указаны полностью.
 4. Аннотация должна состоять из краткого содержания и важности статьи, результатов.
 5. В начале каждой статьи, помимо языка, на котором написана статья, должна быть аннотация на 2-х других языках (на выбор – узбекский, английский, русский и турецкий).
 6. Аннотация должна содержать не более 120-150 слов.
 7. Внизу аннотации должно быть 7-10 ключевых слов, освещающих содержание статьи.
 8. Статья должна быть подготовлена в виде:
 - a) Вступление (Introduction);
 - b) Основная часть (Main part);
 - c) Результаты и обсуждение (Results and Discussions);
 - d) Выводы (Conclusions);
 - e) Литература (References) – в алфавитном порядке
 - f) Ссылка(сноски) приводится в скобках в виде фамилии автора – дата публикации – страница (Муминов, 2020: 25);
 - g) Рисунки, чертежи, таблицы, схемы нумеруются арабскими цифрами и обозначаются как «Рисунок». Знаки или указатели размещают под рисунком, в следующей строке, посередине и выделяют жирным шрифтом.
- Тема научной статьи, представленной автором (или соавторами), должна соответствовать рубрикам журнала.
- Статьи могут быть представлены на узбекском, английском, русском и всех других тюркских языках.
- Автор(ы) несут ответственность за научную обоснованность, достоверность и плагиат информации и доказательств, представленных в статье;
- Статьи рецензируются. В журнале публикуются только статьи, рекомендованные экспертами;
- Нерекондованные статьи не публикуются и не возвращаются авторам;

“TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” DERGİSİNİN BÜLTENİ

Özbekistan Cumhuriyeti devletinin sosyal-eğitimsel ve bilimsel gelişme politikasının başarılı şekilde uygulanmasına yardımcı olmak amacıyla, Semerkant’ta düzenlenen Türk Devletleri Teşkilatının zirvesinde öngörülen karşılıklı ilişkilerin hızlandırılması için geliştirilen program ve projeleri uygulamak, bilimsel çalışmaları koordine etmek, Türkoloji alanında yürütülen araştırma çalışmaları Şeraf Reşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi, Uluslararası “Türkoloji Araştırmaları” dergisini tescil etmiştir. Dergi, Türk dili ve lehçeleri, Orta Asya Türk topluluklarının dil ve edebiyat ilişkileri tarihi, sosyo-kültürel alanlardaki bilimsel ve araştırma çalışmalarının sonuçlarını yayınlamayı amaçlamaktadır. Dergimizde editör kürsüsü, araştırma, bilim dünyasından, inceleme ve tanıma, bilimsel konferans, genç araştırmacı, hatıra, yıldönümleri gibi sütunlar yer almaktadır. Özbekçe, Türkçe, Rusça, İngilizce ve tüm Türk lehçelerinde yazılmış makaleler kabul edilmektedir.

Bilimsel dergi, Özbekistan Cumhuriyeti Yükseköğrenim, Bilim ve İnovasyon Bakanlığı’na bağlı Yüksek Kabul Komisyonu’nun 8 Mayıs 2024 tarihli ve 354/5 sayılı kararına esasen; tarih, filoloji alanlarında Felsefe Doktoru (Doktora) ve Bilim Doktoru (DSc) akademik derecesini almaya aday kişilerin tezleri dolayısıyla bilimsel sonuçlarını yayınlaması tavsiye edilen ilmi yayınlar listesine dâhil edilmiştir.



DERGİ AŞAĞIDAKİ ALANLARDA MAKALELER YAYINLAMAKTADIR:

- ✓ Türk Dünyasındaki sosyo-kültürel ilişkilerin tarihi;
- ✓ Türk Dünyası araştırmaları;
- ✓ Türk Lehçeleri diyalektolojisi;
- ✓ Türk Dünyasının jeopolitiği;
- ✓ Folklor çalışmaları;
- ✓ Karşılaştırmalı dilbilim ve edebiyat çalışmaları;
- ✓ Edebi ilişkiler ve çeviri çalışmaları.

İLETİŞİM ADRESİ:

Posta adresi:

140104, Üniversite Bulvarı, 15,
Semerkant şehri, Özbekistan, Şeraf
Reşidov adına Semerkant Devlet
Üniversitesine bağlı Türkoloji
Araştırmaları Enstitüsü

Telefon:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

Telegram ID:


@turkologiya2025

E-posta:

turkologiya.samdu@gmail.com

İnternet sitesi:

<https://turkologiya.samdu.uz>



MAKALE YAZIM KURALLARI:

- Makale 8-10 sayfada sunulur;
- Makale'nin yapısı:
 1. Makale metni Times New Roman yazı tipinde, 14 punto büyüklükte, sol kenarından 3 cm'lik, sağ kenarından 1,5 cm'lik, üst ve alt kenarından 2 cm'lik boşluk bırakılarak, tek sütun olarak, 1,15 satır aralığında, A4 boyutunda hazırlanmalıdır.
 2. Makalenin başlığı, yazar(lar)ın soyadı, adı ve baba adı tam olarak büyük harflerle yazılmalıdır.
 3. Yazar(lar)ın pozisyonu, akademik ünvanı, çalıştığı (öğrendiği) yer, bölgesi, cumhuriyeti, telefon numarası, e-posta adresi ve ORCID numarası eksiksiz olarak verilmeli.
 4. Özet, makalenin amacını, önemli bulgularını ve sonuçlarını içermelidir.
 5. Her makalenin başında, makalenin yazıldığı dilin yanı sıra 2 dilde de (isteğe bağlı olarak Özbekçe, İngilizce, Rusça ve Türkçe arasından seçilecek) açıklama bulunmalıdır.
 6. Özet, 120-150 sözcüğü geçmeyecek şekilde yazılmalıdır.
 7. Özeti alt kısmında makalenin içeriğini tanımlayacak en az 7, en fazla 10 anahtar kelimeye yer verilmelidir.
 8. Makale, aşağıdaki formatda hazırlanmalıdır:
 - a) Giriş (Introduction);
 - b) Ana bölüm (Main part);
 - c) Sonuçlar ve tartışma (Results and Discussions);
 - d) Sonuçlar (Conclusions);
 - e) Kaynakça (References) alfabetik olarak sıralanmalıdır;
 - f) Bağlantılar (dipnotlar) yazarın soyadı - yayın tarihi - sayfa şeklinde parantez içinde verilecektir (Muminov, 2020: 25);
 - g) Resim, çizim, tablo, diyagramlar “Resim” olarak Arap rakamları ile kaydedilir. İşaretler resmin altına, bir sonraki satıra, ortaya yerleştirilir ve koyu yazılır.
 - Yazarın (veya ortak yazarların) sunduğu bilimsel makalenin konusu dergi sütunlarıyla örtüşmelidir.
 - Makaleler Özbekçe, İngilizce, Rusça ve tüm Türk dillerinde gönderilebilir.
 - Makalede sunulan bilgi ve kanıtların bilimsel dayanağı, güvenilirliği ve intihalinden yazar(lar) sorumludur.
 - Makaleler hakemli olacaktır. Dergide sadece uzmanlar tarafından tavsiye edilen makaleler yayımlanır.
 - Talep edilmeyen yazılar yayınlanmayacak ve yazarlarına iade edilmeyecektir.
 - Derginin 1 sayısında yazarın sadece 1 makalesi yer alacaktır.

TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL
RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKÖLÖJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL
DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Muharrir:

Musahhih va texnik muharrir:

Norxo‘ja Choriyev

Rahmatulloh Shokirov

2025-yil 24-dekabrda tahririy-nashriyot bo‘limiga qabul qilindi.

2025-yil 27-dekabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.

Qog‘oz bichimi 60x84.1/16. «Times New Roman» garniturası.

Offset qog‘ozi. Shartli bosma tabog‘i –11,25.

Adadi 15 nusxa. Buyurtma №765

SamDU tahririy-nashriyot bo‘limi bosmaxonasida chop etildi.

140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.



ISSN 2992-9229



9

772992

922004